


**2020- yil yanvar-dekabr****2020- yilning yanvar-dekabrida kichik
tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi**

Andijon Viloyatida kichik tadbirkorlik

Dastlabki ma'lumotlar

- 2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHMDagi ulushi 68,9 %** ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **13,2** birlikni tashkil qildi.
- 2020- yilning yanvar-dekabrida **7684** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,8** foizga ko'p.

**2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil
etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da****Savdo
35,4 %****Sanoat
31,7 %****Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi
11,7 %****Qurilish
5,7 %**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 2718 ta, sanoatda 2438 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 901 ta, qurilishda 440 ta, yashash va ovqatlanishda 280 ta, tashish va saqlashda 219 ta tashkil etilgan.

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019- y.	2020- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	25807	31683	5876
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	6632	7684	1052
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	69,0	68,9	0,1
Sanoat	%	18,0	20,0	2,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,1	97,9	-1,2
Investitsiya	%	61,7	63,5	1,8
Qurilish	%	94,9	93,4	-1,5
Chakana savdo	%	86,8	88,4	1,6
Xizmatlar	%	69,0	67,0	-2,0
Yuk tashish	%	94,8	95,6	0,8
Yuk aylanmasi	%	69,0	68,3	-0,7
Yo'lovchi tashish	%	95,8	97,9	2,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,9	97,2	1,3
Eksport	%	58,9	44,6	-14,3
Import	%	15,2	12,9	-2,3



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik
subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da

YaHM
68,9%

Savdo
88,4%

Sanoat
20,0%

Qurilish
93,4%

Investitsiya
63,5%

Eksport
44,6%

Xizmatlar
67,0%


Import
12,9%

Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	(+;-)
Andijon viloyati	6632	7684	1052
<i>shaharlar:</i>			
Andijon sh.	1895	1925	30
Xonobod sh.	186	125	-61
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	359	400	41
Andijon	475	489	14
Baliqchi	285	446	161
Bo'ston	206	291	85
Buloqboshi	209	336	127
Jalaquduq	259	408	149
Izboskan	365	384	19
Ulug'nor	107	174	67
Qo'rg'ontepa	318	399	81
Asaka	614	681	67
Marhamat	306	351	45
Shahrixon	510	556	46
Paxtaobod	292	358	66
Xo'jaobod	246	361	115



2020- yil yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va
shaharlar bo'yicha ulushi, % da




2020- yilning yanvar-dekabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Andijon shahri - 25,0 %, Asaka tumani - 8,9 %, Shahrixon tumani 7,2 %, Andijon tumani - 6,4 %, Baliqchi tumani - 5,8 %, Jalaquduq tumani – 5,3 %, Oltinko'l tumani - 5,2 %, Qo'rg'ontepa tumani - 5,2 %, ga tegishli.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	farq. (+;-)
Jami	6632	7684	1052
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	273	901	628
Sanoat	1829	2438	609
Qurilish	589	440	-149
Savdo	2615	2718	103
Tashish va saqlash	214	219	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	492	280	-212
Axborot va aloqa	106	129	23
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	137	150	13
Boshqa faoliyat turlari	377	409	32

Ma'lumot uchun: 2020– yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi (+;-)
Andijon sh.	1895	1925	30
Asaka tumani	614	681	67
Shahrixon tumani	510	556	46
Andijon tumani	475	489	14
Baliqchi tumani	285	446	161
Jalaquduq tumani	259	408	149
Oltinko'l tumani	359	400	41
Qo'rg'ontepa tumani	318	399	81

2020- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida – 1925 tani tashkil etdi.



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda






2020- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subektlarining soni har **1000** aholiga nisbatan **13,2** birlikni tashkil etdi.



Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra*




2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida 24,5 birlik, Ulug'nor tumanida 22,7 birlik, Xo'jaobod tumanida 16,7 birlik, Bo'ston tumanida 15,7 birlik, Xonobod shahrida 14,2 birlik, Asaka tumanida 13,1 birlik, Baliqchi tumanida 12,7 birlikni tashkil etgan. Izboskan tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 8,2 birlikka to'g'ri keldi.

** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)*




2020- yilning yanvar-dekabrida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2020- yilning yanvar-dekabrida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

Eng yuqori ko'rsatkich

- Andijon shahri
- 24,5 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich

- Asaka tumani
- 13,1 birlik.

Eng past ko'rsatkich

- Izboskan tumani
- 8,2 birlik.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-dekabr holatiga ko'ra, % da

2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 68,9 % ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar-dekabrida 69,0 %).

73,4%

2018- y.

69,0%

2019- y.


68,9%

2020- y.

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



**2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning
tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy
tarmoqlaridagi ulushi, (%) da**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Andijon viloyati	20,0	93,4	67,0	63,5
<i>shaharlar:</i>				
Andijon sh.	23,4	94,2	48,8	49,4
Xonobod sh.	14,6	99,9	72,8	79,6
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko'l	61,2	98,9	84,2	57,5
Andijon	73,7	84,0	82,7	78,0
Baliqchi	39,0	93,1	76,6	46,5
Bo'ston	56,8	97,5	80,9	44,4
Buloqboshi	100,0	100,0	85,0	83,2
Jalaquduq	78,9	84,7	85,8	81,4
Izboskan	72,9	100,0	86,4	63,1
Ulug'nor	57,4	56,9	88,6	88,2
Qo'rg'ontepa	38,5	79,9	75,3	79,2
Asaka	2,4	100,0	67,1	34,9
Marhamat	67,8	100,0	84,7	76,0
Shahrixon	80,5	100,0	78,9	75,5
Paxtaobod	62,7	100,0	85,4	88,2
Xo'jaobod	64,3	100,0	68,1	80,4

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Buloqboshi (100,0 %),
Shahrixon (80,5 %),
Jalaquduq (78,9 %),
Andijon (73,7 %),
Izboskan (72,9 %),
Marhamat (67,8 %) va
Xo'jaobod (64,3 %)
tumanlarida.


Qurilishda-

Buloqboshi (100,0 %),
Izboskan (100,0 %),
Asaka (100,0 %),
Marhamat (100,0 %),
Shahrixon (100,0 %),
Paxtaobod (100,0 %) va
Xo'jaobod (100,0 %)
tumanlarida.


Xizmatlarda-

Ulug'nor (88,6 %),
Izboskan (86,4 %),
Jalaquduq (85,8 %),
Paxtaobod (85,4 %),
Buloqboshi (85,0 %),
Marhamat (84,7 %) va
Oltinko'l (84,2 %)
tumanlarida.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 261,0 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 44,6 % ini tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




2020- yil yanvar-dekabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Baliqchi tumanida - 100,0 %, Buloqboshi tumanida - 100,0 %, Paxtaobod tumanida - 95,1 %, Andijon tumanida - 86,3 %, Jalaquduq tumanida - 80,9 %, Marhamat tumanida - 76,0 %, Qo'rg'ontepa tumanida - 74,8 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida - 16,4 % ni tashkil etdi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot(ishlar va xizmatlar) importining hajmi 285,8 million AQSh dollarini yoki umumiy import hajmining 12,9 % ini tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2020- yil yanvar-dekabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Baliqchi tumanida - 100,0 %, Buloqboshi tumanida - 100,0 %, Izboskan tumanida - 100,0 %, Jalaquduq tumanida - 100,0 %, Ulug'nor tumanida - 97,7 %, Paxtaobod - 96,1 % va Shahrixon tumanida - 93,8 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida - 1,0 % ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subektlari tomonidan 7134,0 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2020- yilning yanvar-dekabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (1340,5 mlrd. so'm), Andijon (689,2 mlrd. so'm), Shahrixon (609,2 mlrd. so'm), Jalaquduq (539,6 mlrd. so'm) va Izboskan (538,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Ulug'nor tumanida (138,0 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 20,0 foizni tashkil etdi.



2020- yil yanvar-dekabr holatiga tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Buloqboshi tumani (100,0 %), Shahrixon tumani (80,5 %), Jalaquduq tumani (78,9 %), Andijon tumani (73,7 %), Izboskan tumani (72,9 %), Marhamat tumani (67,8 %) va Xo`jaobod (64,3 %) tumanlari tashkil etdi. Asaka tumanida (2,4 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo`lib qolmoqda.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 12884,6 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 88,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 97,9 foizni tashkil qildi.



2020- yilning yanvar-dekabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar




Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (3282,4 mlrd. so'm), Shahrixon tumani (1798,8 mlrd. so'm), Asaka tumani (1344,8 mlrd. so'm) va Qo'rg'ontepa tumani (959,1 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 4176,9 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 93,4 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 103,2 foizni tashkil qildi.




2020- yilning yanvar-dekabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (1386,1 mlrd. so'm), Andijon tumani (499,7 mlrd. so'm), Shahrixon tumani (318,9 mlrd. so'm), Oltinko'l tumani (292,3 mlrd. so'm) hamda Marhamat tumanida (210,6 mlrd. so'm) qayd etildi.


2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 7541,8 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 67,0 % ini tashkil qildi 2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 101,0 foizni tashkil qildi.



2020- yilning yanvar-dekabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati





Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Andijon shahri (2167,8 mlrd. so'm), Shahrixon tumani (669,7 mlrd. so'm), Asaka tumani (628,9 mlrd. so'm), Andijon tumani (525,8 mlrd. so'm) va Qo'rg'ontepa (464,6 mlrd. so'm) tumani hissasiga to'g'ri keladi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 95,6 foizni tashkil etdi. 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,9 foizni tashkil qildi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 68,3 foizni tashkil etgan bo'lib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,6 foizni tashkil qildi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,9 foizni tashkil etib, bu esa 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 9,0 foizga pasayishiga olib keldi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,2 foizni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 8,8 foizga pasayish kuzatildi.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **1066** ta respondentlar ishtirok etdi.



2020- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 4,3 % (46 ta), sanoatda – 20,3 % (216 ta), qurilishda – 10,4 % (111 ta), savdoda – 33,6 % (358 ta), xizmatlar sohasida – 31,4 % (335 ta) ni tashkil etdi.


** oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha.*



2020- yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan, kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2020- yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yilning IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning ulushida barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 10,8 punktga, sanoat sohasida 5,5 punktga, qurilishda 5,2 punktga, savdo sohasida 2,7 punktga, xizmatlar sohasida 4,4 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda sanoat sohasida 5,7 punktga, savdo sohasida 3,0 punktga, xizmatlar sohasida 3,2 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatini baholash, % da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo


Xizmatlar



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 5,8 punktga, sanoat korxonalarida 1,1 punktga, qurilish korxonalarida 18,7 punktga, savdo sohasida 5,7 punktga, xizmatlar sohasida 21,8 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 0,1 punktga, sanoat sohasida 6,2 punktga, savdoda 0,6 punktga, xizmatlar sohasida 2,1 punktga oshdi.



Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatining yaqin uch oy uchun baholanishi,% da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish


Savdo

Xizmatlar







2020- yilning IV choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **145** ta respondentlar qatnashgan. Shundan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 15 ta (ishtirok etgan respondentlar umumiy sonining 10,3 % i), sanoat korxonalari – 46 ta (31,7 %), qurilish – 8 ta (5,5 %), savdo – 53 ta (36,6 %) va xizmatlarda – 23 ta (15,9 %) subyekt ishtirok etdi.




2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2020- yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi savdo sohasida 2,3 punktga pasaygan, qolgan barcha faoliyat turlari bo'yicha ko'payishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 6,7 punktga, sanoat sohasida 0,6 punktga, qurilishda 12,5 punktga, savdo sohasida 13,7 punktga va xizmatlar sohasida 3,7 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



2019-2020- yillarning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar



■ qulay ■ qoniqarli ■ qoniqarsiz

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra, 2020- yilning IV choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyati yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi savdo sohasida 4,1 punktga oshgan, qolgan barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamayishi kuzatildi.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi sanoat korxonalarida 14,7 punktga va qurilishda 38,9 punktga oshdi, aksincha savdo sohasida 12,2 punktga, xizmatlar sohasi korxonalarida esa 18,3 punktga kamayishi kuzatildi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha oshishi kuzatildi.



2019-2020- yilning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar

